



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI IJTIMOY XIZMATLARI RIVOJLANISHINING ASOSIY MUAMMOLARI, OMILLARI TAHLILI VA USULLARI

Ubaydullaev K.

Qoraqalpoq davlat universiteti, i.f.d., professor
tel: (+99897) 2200054, el. pochta qqdu_mm@bimm.uz
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17719586>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-noyabr 2025 yil
Ma'qullandi: 23-noyabr 2025 yil
Nashr qilindi: 26-noyabr 2025 yil

KEYWORDS

*infratuzulma, ijtimoy
infratuzulma, ijtimoy-iqtisodiy
tarraqiyot, ijtimoiy xizmatlar.*

ABSTRACT

Maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasi ijtimoiy xizmatlari rivojlanishida omillar tahlili, eng avvalo mintaqaning asosiy ijtimoiy muammolari, darajalari hamda o'zaro ta'siri va aks ta'sirlari o'rganiladi.

O'zbekistonning shimoliy-g'arbiy qismidagi mintaqasi Qoraqalpog'iston Respublikasi mamlakatimizning yirik ma'muriy-hududiy va o'ziga xos tabiiy-geografik, iqtisodiy-ijtimoiy tuzilmasi hisoblanadi.

Mintaqaning iqtisodiy va ijtimoiy hayoti bir-biri bilan chambarchas bog'liq va o'zaro ta'sir va aks aloqalarida bo'lib rivojlanadi. Bir tomondan mintaqaning iqtisodiy salohiyati uning ijtimoiy taraqqiyot sur'atlarining tezlashishiga yordam bersa, ikkinchi tomondan jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlarining o'sishi iqtisodiyotning rivojlanishiga, iqtisodiy munosabatlarning takomillashuviga turtki beradi. O'z navbatida, ularning har biri mustaqil soha sifatida ko'plab ichki va tashqi rivojlanish omillari ta'sirida taraqqiy qiladi.

Bu omillar tahlili, eng avvalo mintaqaning asosiy ijtimoiy muammolari va ular darajalari hamda o'zaro ta'siri va aks ta'sirini o'rganish natijalariga tayanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining ijtimoiy infratuzilmasini tipologizatsiyalash asosida tadqiq qilish mintaq hududlari va kesimida qiyosiy o'rganish bizga nisbatan o'tkir bo'lgan muammolarni belgilashga va ularni darajalari bo'yicha ranglarga ajratishga imkon beradi. Bunday ranglashtirish muammolar ta'sir(aks ta'sir)ini baholash va mintaqaning ijtimoiy siyosatining ilmiy uslubiy va amaliy konseptual asoslarini belgilaydi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining ijtimoiy infratuzilmasini belgilash va o'rganishning murakkabligi uning ko'p qirrali, ko'p bosqichli, murakkab hodisa ekanligi bilan bog'liqligidir. Hozirgi davrga kelib, ijtimoiy infratuzilmaning turli xil tasniflari paydo bo'ldi va ular tahlili amalga oshiriladi. Lekin, bu tasniflashga yondashuvlar mintaq ijtimoiy tuzilmasini yaxlit tabiatini har tomonlama ko'rsatishga imkon bermaydi. Tasniflashlarning xilma-xilligining sababi tadqiqotchilar o'rtasida turli maqsadlar va o'rganish ob'ektlari, shuningdek, turli darajadagi va turli xil faoliyat maqsadlariga ega bo'lgan sub'ektlarda ko'plab vaziyatlar va muammolar yuzaga keladi. Tasniflashda ijtimoiy infratuzilmaning tarkibiy elementlarini makon, tarkibiy-funksional va evolyusion jihatlarida tizimli tasniflashni izchil amalga oshirish

zarur. Tasniflash umumiylikdan alohidalashtirish mezonlarga ko'ra amalga oshirilishi kerak, ya'ni tuzilma-funksiya-dinamika bu tadqiqotchiga sinflarni, ya'ni funksional, tizimli, dinamik va kichik sinflardan bo'lgan reproduktiv, tabaqalashtirilgan, boshqaruv, tarmoq, daraja va boshqalar, turlariga va ulardan yanada kichikroq qismlarni ajratishga imkon beradi. Shuningdek, bu yirik mintaqa ijtimoiy infratuzilmasi faoliyat turilari, mulkchilik shakllari va boshqa belgilari bo'yicha tasniflash ularning tipologik xususiyatlarini aniq makon va zamon ta'rifida aniqlashtiradi hamda alohidalashtiradi.

Umuman mintaqaning hudud ijtimoiy infratuzilmasi, uning bir tomondan, quyi ijtimoiy-iqtisodiy tizimi bo'lsa, ikkinchi tomondan, aholi va hududning mulkchilik shakllarini ifodalagan davlat, nodavlat va qo'shma xo'jalik sub'ektlari ishlab chiqaradigan mahsulotlar, xizmatlar va boshqalarga bo'lgan ehtiyojlarini qondiradigan hududiy-tarmoqli majmualaridan iborat bo'lib uning yaxlit bir mexanizmi shaklida ishlashi, ko'payishi va rivojlanishi uchun muhim va zarur muhit hisoblanadi.

Mintaqada ijtimoiy infratuzilmaning hozirgi holatini o'rganishda uni rivojlanishning asosiy tendensiyalariga ta'sir qiluvchi bir qator qarama-qarshiliklar mavjudligi bilan aniqlash mumkin.

Shuningdek, ijtimoiy infratuzilma inson hayoti uchun shart-sharoitlar, uning faoliyatining barcha asosiy turlarini - mehnat, madaniy, oilaviy va ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish uchun sharoit bo'lib xizmat qiluvchi barqaror moddiy elementlar to'plami sifatida tasniflanishi mumkin. Umuman iqtisodiy adabiyotlarda ijtimoiy infratuzilmani aniqlashga juda ko'p yondashuvlarning mavjudligi va bu iqtisodiy kategoriyalarning haligacha uning o'ziga xos mazmunini yakuniy asoslash imkonini beruvchi umume'tirof etilgan barqaror mantiqiy xususiyatlarni egallamaganligini ham ko'rsatadi.

Yuqoridagi tadqiqotlarning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda biz mintaqaning 2 ta umumlashgan moddiy buyumlashgan yondashuvlar asosida o'rganish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ya'ni:

- moddiy yondashuvni ifodalaydigan ijtimoiy xizmatlarning faoliyat shakllari bo'yicha tasniflashga;
- bosqichli yondashuvni ifodalaydigan ijtimoiy xizmatlarning aholi turmush darajasi faravonligini oshirish omillari sifatida tasniflashga. Bu yondashuvlar 1-jadvalda keltirilgan.

Birinchi yondashuv mintaqa ijtimoiy infratuzilmani tushunishdagi xususiyatlar, xossalar va elementlarni talqin qilishdagi ma'lum noaniqliklar sababli uning moddiy buyumlashgan belgilariga asoslangan faoliyat turlari bo'yicha guruhlashga tayanadi. Bunday yondashuv bizga mintaqaning ijtimoiy infratuzilmasi ilmiy tushunchasi ta'rifini unda inson omilini takror ishlab chiqarish, saqlash, tiklash va takomillashtirish uchun ijtimoiy-makon sharoitlarini ta'minlovchi hududiy-tarmoqli majmuada inson faoliyatining asosiy turlari bo'lgan mehnat, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy faoliyatlari asosida butun jamiyat taraqqiyoti va aholi turmush sifatini shakllantirish manfaatlaridan kelib chiqqan holda tashkil etish va amalga oshirishni belgilovchi yaxlit bir tuzilma sifatida ta'riflashga imkon beradi.

Ikkinchi yondashuv infratuzilmani o'rganishning bosqichli yondashuv esa uning ehtiyojlarni qondirish darajasiga ko'ra guruhlash bilan bog'lash imkoniyati bilan xarakterlanadi. Bunda yuqori darajadagi ehtiyojlarni qondiradigan tarmoqlarning shakllanishi makro va mezo darajada, asosiy ehtiyojlar esa mikro darajada amalga oshiriladi.

1-jadval

**Mintaqa infratuzilmasi ijtimoiy xizmatlari
turi yo'nalishlarini asosiy belgilari bo'yicha tasniflash**


No	Tasniflash belgilari	Guruhlar bo'yicha turlari
I Ijtimoiy xizmatlarning faoliyati shakllari bo'yicha guruhlash		
1	Mulkchilik shakli bo'yicha	Davlat, nodavlat, aralash, xususiy va boshqa ijtimoiy xizmatlar shakllari
2	Infratuzilma tarmoqlari bo'yicha	Ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport, ijtimoiy himoya va boshqalar
3	Kapital mablag'lar sarfi bo'yicha	Nisbiy kapital mablag'lari ijtimoiy sohalarini yuqori, o'rtacha va past bo'lgan yo'nalishlari
4	Moliyalashtirish manbalari bo'yicha	Byudjet, nobyudjet, homiylar, bank-moliya kreditlari
5	Inson kapitali darajasi bo'yicha	Yuqori malakali ijtimoiy xizmatlar, maxsus malakali kasbiy ijtimoiy xizmatlar
II Ijtimoiy xizmatlarni aholi turmush darajasi, faravonligini oshirish omillari bo'yicha guruhlash		
6	Ijtimoiy xizmatlarni iste'mol ehtiyoji darajalari bo'yicha	Jamiyat, kooperativ, individual ijtimoiy xizmatlari
7	To'lov xarajatlari sharoitlari bo'yicha	Pulli ijtimoiy xizmatlar, qisman pulli va bepul ijtimoiy xizmatlar
8	Ijtimoiy xizmatlar me'yoriy darajalari bo'yicha	Tabaqalashtirilgan, tabaqalashtirilmagan ijtimoiy xizmatlar
9	Bozor talabi, taklifi nisbatlari darajalari bo'yicha	Bozor, nobozor talablari va takliflari
10	Milliy ijtimoiy iste'mol hajmi bo'yicha	Milliy iqtisodiy-ijtimoiy salohiyati asosida ijtimoiy tabaqalashtirilgan ijtimoiy xizmatlar

Mulkchilik shakliga ko'ra ijtimoiy infratuzilmani davlat va nodavlat hamda ular sherikchiligidagi sektorlarini ajratib ko'rsatish kerak. Makrodarajadan mikrodarajaga tushganimiz sari nodavlat sektor hajmi oshadi va mehnatning ijtimoiylashuv darajasi esa pasayib boradi.

Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi ijtimoiy infratuzilmasi hududiy tarmoq majmualarini yuqoridagi ilmiy uslubiy yondashuvlarga asoslangan holda 5 ta tuzilmaga ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblaymiz 1-rasm.

Biz Qoraqalpog'iston Respublikasi ijtimoiy infratuzilmasi mintaqa tipologiyasi asosida hududiy-ma'muriy tuzilmalari va ularning resurslar kesimida tahlilini o'rgandik. Ma'lumki, tipologiya yunoncha tupos-namuna va loqia so'zlardan shakllangan ilmiy usulni bildiradi. Bu usulning asosida tizim ob'ektlari va ularning guruhlarini umumlashgan model yoki shaklda ajratish tushuniladi. Biz

1-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyotida ijtimoiy infratuzilma tarkibiy majmualari tarmoqlari va ularning asosiy ko'rsatkichlari



ijtimoiy infratuzilmani tipologizatsiyalashni mintaq va mamlakatning boshqa hududlari bilan qiyoslaganda nisbatan o'tkir bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini va istiqbolli rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash maqsadida o'rgandik. Chunki, ijtimoiy

infratuzilmani tipologizatsiyalash mintaqaning rivojlanish darajasini baholash va ushbu asosda hududiy ijtimoiy siyosatni shakllantirish va uni ilmiy nazariy asoslashda muhim o'rin tutadi.

Ijtimoiy infratuzilmasi tipologiyasi mintaqaning tavsifida muhim ahamiyatga ega omillar va ko'rsatkichlar to'plami asosida shakllantiriladi. Chunki hududiy ijtimoiy siyosatni shakllantirish maqsadida mintaqaning amaldagi iqtisodiy jarayonlari bilan bir qatorda uning tabiiy, geografik va boshqa omillarining bevosita hududiy rivojlanishiga ta'sirini e'tiborga olish muhim hisoblanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi ijtimoiy infratuzilmasi hududiy tarkibini shakllantirishda biz ko'pchilik omillar va ko'rsatkichlar to'plamidan eng asosiy va muhimlarini olishga harakat qildik.

Mamlakat miqyosida qatori respublikada ham, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishning asosini investitsiyalar hajmi tashkil etadi. Ijtimoiy infratuzilma sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar umumiy muammolarni bilan bir qatorda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan qiyinchiliklarga ham duch kelmoqdalar. Avvalo, ijtimoiy infratuzilma ob'ektlariga investitsiyalarni jalb qilishning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, korxonaning o'z mablag'lari, xorijiy investitsiyalar va bank-moliya mablag'lari tashkiliy, huquqiy qiyinchiliklaridan hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, hududning ijtimoiy infratuzilmasini tavsiflovchi statistik ma'lumotlari ochiq shaklda bo'lib ulardan har qanday manfaatdor foydalanuvchiga ularni amaliyotda qo'llash imkonini beradi. Bir tomondan, bu tadqiqot uchun yetarli axborot resursi bo'lib xizmat qiladi, biroq, ikkinchi tomondan, u bir qator muhim muammoli qiyinchiliklarga ega. Xususan, mintaq sub'ektlarining ijtimoiy infratuzilmasi to'g'risidagi statistik ma'lumotlar turlari rasmiy statistik manbalarda alohida ajratilmagan bo'ladi. Shu sababdan ham mintaq sub'ektlarining ijtimoiy infratuzilmasi ko'rsatkichlarining yagona rasmiy tizimi mavjud emasligi har bir tadqiqotchiga ushbu muammoni hal qilishda o'ziga xos uslubiy yondashuvlarni qo'llashni taqozo qiladi. Ko'pincha, tadqiqotchilar ko'rsatkichlar turlari, infratuzilma tarkibi va umumiy foydalanish mumkin bo'lgan statistik ma'lumotlar to'g'risidagi o'z tushunchalari so'rovnomalari asosida anketalar tuzish, ekspertlar xulosasiga tayanishga to'g'ri keladi. Ko'rsatkichlar tizimini shakllantirishda bunday individual yondashuv qiyosiy tahlil qilishning cheklangan imkonini bersa ham jarayonning dinamikada istiqbolli tarkibiy o'zgarishlarni baholash imkoniyatini yaratadi.

Yana bir masala shundaki, ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanish darajasi bo'yicha hududiy taqqoslashlarni o'tkazishda ko'rsatkichlar tizimining nisbiy qiymatlar bilan ifodalanishi muhim ahamiyatga ega, bu esa dastlabki ma'lumotlar to'plamini shakllantirishda qo'shimcha hisob-kitoblarni nazarda tutadi. Gap shundaki, statistik manbalar asosan mintaq sub'ektlarida infratuzilmaning umumiy rivojlanish dinamik ma'lumotlarini, asosan hududning hajmi va bu hajmni tavsiflovchi ayrim mutlaq qiymatlarni beradi.

Hududni ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari joylashuvi aholining turmush sharoitlari, zamon va makonda tabaqalanishuvida ayrim sezilarli tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy va tabiiy, demografik farqlarni to'liq va har tomonlama tahlil qilish asosida ijtimoiy infratuzilmani samarali rivojlantirishning asoslangan usullarini tadqiqotchidan va tanlashni talab qiladi va ular tizimini shakllantirib unumli qo'llashi tadqiqot maqsadlariga erishish imkoniyatlarini oshiradi.

Adabiyotlar:

1. Марков Л.С. Экономические кластеры. Сб. науч. тр. / Под ред. В.Е. Селиверстова, В.М. Марковой, Е.С. Гвоздевой. - Новосибирск: ИЭОПП СО РАН, 2005. - Разд. 1. - С. 104-105.
2. Семенкова Т.Г. Инфраструктура и сфера услуг. // Мировая экономика и международные отношения. - 1971, - №3. - С.122.

